

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Tashpulatov	
Basketbol texnikasini o'rgatish metodikasi	98
D.Rafikova	
Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonidagi pedagogik amaliyotning ahamiyati	103
A.Muxametov	
Qo'l to'pi o'yini darvazobonini tayyorlashning uslubiy yo'llari	107
A.Kdirbayeva, Y.Ryabova, A.Abdikadirov	
Uzluksiz pedagogik amaliyot – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligining eng muhim komponenti	113
G'.Shermatov	
Yosh bolalarga kurash sport turlarini o'rgatish.....	121
N.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish videomateriallari	130
F.Karimov	
Keksa yoshdagi 60-64 yoshli erkaklar uchun jismoniy holatini inobatga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasi uslubiy tavsiyalari.....	135
Y.G'afforov	
Ta'lim sifati va o'qitish metodlarini tanlashning asosiy jihatlari.....	145
A.Tadjibaeva	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash vositasi sifatida.....	150
M.Tairova	
Aholini sog'lomlashtirish uchun jismoniy mashqlarning tejamkor texnologiyalari	157
M.Baybaeva, I.Imomov	
Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmali modeli	160
R.Turgunbayev, K.Kodirov, A.Nishonboyev	
O'quvchilarda umummatematik faoliyat usullarini shakllantirish modeli	164
S.Uraimov	
Umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini o'rganish va tadqiqot qilish.....	170
G'.Ernazarov	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	174
S.Uraimov	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy xususiyatlari.....	179
R.Nazimov	
O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy usullar asosida tashkil etish.....	182
S.Isroilova	
Rus tilini o'qitish va muloqot qilish jarayonida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish	187
M.Tojiboyev, D.Yunusova, M.Xursantova	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi	191
Q.Iqboljon	
Sharq allomalari musiqiy merosida bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimining gnesiologik tahlili.....	195
O.Fozilova	
Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondashuv usullari	201
A.Zaripova	
Oliy ta'lim muassasalarida noan'anaviy ta'lim berish metodlarini amaliyotga joriy etish orqali chet tillarni o'qitish sifatini yaxshilash.....	205
B.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik madaniyatini rivojlantirishining nazariy-metodologik asoslari.....	209
N.Karimov	
O'quv dala amaliyotida poxodlarni tashkil etishda gigiyenik qoidalarga amal qilish tartibi.....	212

**TALABALARNING NIZOLI XULQ ATVORINI PEDAGOGIK TASHXIS ETISHNING
SINERGETIK-TUZILMALI MODEL****СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ
КОНФЛИКТНОГО ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ****SYNERGETIC-STRUCTURED MODEL OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC OF
STUDENTS' CONFLICT BEHAVIOR****Baybaeva Muxayyo Xudaybergenovna¹, Imomov In'omiddin Abdulxamidovich²****¹Baybaeva Muxayyo Xudaybergenovna**

– Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrasini professori v.b., pedagogika fanlari doktori

²Imomov In'omiddin Abdulxamidovich

– Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Umumiy va aniq fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotasiya

Mazkur tadqiqot mualliflari oliy ta'lim muassasalari talabalarning nizoga asos bo'luvchi xulq-atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik konsepsiyasini ishlab chiqishni maqsad qilgan. Unda shaxsiyatning dinamik tuzilmasi konsepsiyasiga muvofiq to'rtta kichik tuzilmalar ketma-ketligi, ularning ahamiyati va nizolarni vujudga kelishining mazkur kichik tuzilmalarga uzviy bog'liqligi bayon qilingan. Ta'lim-tarbiya jarayonda nizoga sabab bo'luvchi xulq-atvor, nizoga kirishuvchi tomonlar, ularning o'zaro munosabati, nizolarni oldini olish imkoniyatlari va nizoli vaziyatlarni yumshatish, qolaversa, ularni bartaraf etishda obyektivlikning ahamiyati, nizoli vaziyatlarni boshqarishni yaxlit tizim sifatida o'rganilgan. Tadqiqot davomida makroijtimoiy yondashuv singari oliy ta'lim ijtimoiy muhitidagi nizolarni talqin etishga asoslangan xilma-xil nazariya va konsepsiyalarga tayanib nizolarni sinergetik nazariy asoslari tahlil qilingan, shuningdek, ta'lim muassasalarida yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan pedagogik nizolarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida vujudga keladigan nizoli vaziyatlarda talabalar xulq-atvorini pedagogik tashxis etish natijasida nizolarni bartaraf etishning sinergetik modeli ishlab chiqilgan.

Аннотация

Авторы настоящего исследования ставят перед собой задачу разработать синергетическую концепцию педагогической диагностики конфликтного поведения студентов высших учебных заведений. Описывается последовательность четырех подструктур согласно концепции динамической структуры личности, их значение и присущая им зависимость возникновения конфликтов от этих подструктур. Конфликтное поведение в образовательном процессе, конфликтующие стороны, их взаимодействие, возможности предотвращения конфликтов и смягчения конфликтных ситуаций, кроме того, значение объективности в их устранении, изучается конфликтоведение как целостная система. В ходе исследования были проанализированы синергетические, теоретические основы конфликтов на основе различных теорий и концепций, основанных на трактовке конфликтов в социальной среде высшей школы, таких как макросоциальный подход, а также возможность успешной организации педагогической деятельности процесса воспитания подрастающего поколения как совершенной личности в образовательных учреждениях, разработаны практические рекомендации по предупреждению и устранению педагогических споров. В результате педагогической диагностики поведения студентов в конфликтных ситуациях, возникающих между студентами вузов, разработана синергетическая модель разрешения конфликтов.

Abstract

The authors of this study set themselves the task of developing a synergistic concept of pedagogical diagnostics of conflict behavior of students of higher educational institutions. The sequence of four substructures is described according to the concept of the dynamic structure of personality, their meaning and their inherent dependence of the occurrence of conflicts on these substructures. Conflict behavior in the educational process, conflicting parties, their interaction, the possibility of preventing conflicts and mitigating conflict situations, in addition, the importance of objectivity in their elimination, conflict studies are studied as an integral system. The study analyzed the synergistic, theoretical foundations of conflicts based on various theories and concepts based on the interpretation of conflicts in the social environment of higher education, such as a macro-social approach, as well as the possibility of successfully organizing the pedagogical activity of the process of educating the younger generation as a perfect personality in educational institutions, practical recommendations for the prevention and elimination of pedagogical disputes have been developed. As a result of pedagogical diagnostics of students' behavior in conflict situations that arise between university students, a synergistic model of conflict resolution has been developed.

Kalit so'zlar: talaba, o'qish, model, tuzilma, sinergetika, tarbiyaviy jarayon, imkoniyat, sabab, aloqa, xulq atvor.**Ключевые слова:** студент, обучение, модель, структура, синергия, образовательный процесс, возможность, причина, общение, поведение.**Key words:** student, learning, model, structure, synergy, educational process, opportunity, reason, communication, behavior.

KIRISH

Shaxs tuzilmasi masalasiga nafaqat yo'nalganlik bilan bog'liqlikda bir tomonlama qarash, rivojlanish darajasi va dinamikasini hisobga olish lozim. Tuzilmaviy tavsiya bizga uning yaxlitligi yoki bo'linishi, bosqichliligi yoki qarama-qarshiligi, barqarorligi yoki o'zgaruvchanligi, chuqurligi yoki yuzakiligi, u yoki bu psixik funksiyalarga egaligi yoki yetarlicha namoyon bo'lishini aniqlashga yordam beradi.

Ko'pchilik psixologlarning hisoblashicha, shaxsiyatning obyektiv tuzilmasi bilishga doir, emotsional-hissiy, qadriyatga yo'naltirilgan, amaliy komponentlar birligini aks ettiradi. Masalan, shaxsiyatning dinamik tuzilmasi konsepsiyasiga muvofiq quyidagi ketma-ketlikdagi to'rtta kichik tuzilmalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Shaxsiyatning birinchi kichik tuzilmasi axloqiy xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi shaxsning yo'nalganligi va munosabatini o'zida birlashtiradi.

2. Shaxsiyatning ikkinchi kichik tuzilmasi biologik, shu bilan birga, shaxsning genetik xususiyatlari ta'siri orqali, ta'lim olish yo'li bilan shaxsiy tajribaga aylangan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni o'zida birlashtiradi.

3. Shaxsiyatning uchinchi kichik tuzilmasi psixik jarayonlar shakli sifatida tushuniladigan xotira, emotsiya, his-tuyg'u, fikrlash, idrok, iroda kabi alohida individual xususiyatlarni o'zida mujassam etadi.

4. Shaxsiyatning to'rtinchi kichik tuzilmasi shaxsning temperamenti yoki tipologik xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. Bunga jinsiy, yosh xususiyatlari, undagi "organik" o'zgarishlar kiradi.

Shaxsiyatning mazkur tuzilmasining ahamiyati shundaki, u nizoli xulq-atvorning yuzaga kelish manbalarini o'rganishga imkon beradi. Maxsus dalillarsiz ham shuni aytish mumkinki, nizo yuqorida sanalgan shaxsiyat tuzilmasi elementlari bilan bevosita bog'liq; nizo u yoki bu darajada shaxsning yo'nalganligi va boshqa kishilar bilan munosabatlari tavsifiga bog'liq; yo'nalganlik, eng avvalo, bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni aniqlab beradi; insonning xatti-harakatlar hamma vaqt individual-shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi; ular shaxs temperamentiga ham bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nazariy-metodologik asos sifatida makroiijtimoiy yondashuvlar orasidan quyidagilar alohida o'rganildi:

Pedagogik nizolarning asosida ta'lim jarayoni subyektlarining nuqtayi nazarlari va qiziqishlarining turfa xilligi masalasi turuvchi R.Darendorfning konseptual g'oyalari; pedagogik nizoni ijtimoiy kasallik sifatida tavsiflashga doir E.Dyurkgeym, T.Parsons, N.Smelzerning tuzilmali-funksional yondashuvi. Mazkur yondashuvga ko'ra, murosaga asoslangan munosabatlarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy tenglikning asosi sifatida qaraladi.

Mikroiijtimoiy yondashuv ijtimoiy o'zaro birgalikdagi harakat va xulq-atvorni tahlil etishga asoslanadi. Uning metodologik asosi ta'lim jarayonidagi o'qituvchi va talabalarning rollarini chuqur tahlil etish imkonini beradigan motivlar va o'zaro munosabatlarning o'ziga xosliklarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv doirasida o'rganish obyekti sifatida nizoga asoslangan shaxslararo o'zaro harakatlar vaziyati aks etadi. Makroiijtimoiy yondashuv singari oliy ta'lim ijtimoiy muhitidagi nizolarni talqin etishga asoslangan xilma-xil nazariya va konsepsiyalarni (G.Zimmel', Z.Freyd, K.Xorni, E.From) o'zida aks ettiradi.

Muammoga oid manbalardan birida ko'rsatilishicha, har qanday nizo negizida quyidagilarni o'z ichiga oladigan vaziyat yotadi: 1) qandaydir holat yuzasidan tomonlarning o'zaro kelisha olmasliklari; 2) tomonlarning mavjud vaziyatda kutilgan natijaga erishishga qaratilgan maqsad va vositalarning o'zaro qarama-qarshiligi; 3) tomonlarning qiziqish, xohish-istak, layoqat va hokazolarning bir-biriga mos kelmasligi [1].

Ta'lim muassasalarida yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan pedagogik nizolarning oldini olish va ularni bartaraf etish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy hamda psixologik yondashuvga ko'ra nizoli vaziyatlar turli shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, millatlar va davlatlararo munosabatlarda yuzaga kelib, menejment, etnopsixologiya va xalqaro munosabatlar doirasida o'rganiladi. Shaxslar hamda guruhlararo munosabatlarda yuzaga keladigan nizolar esa sotsiologiya va psixologiya sohalarida o'rganiladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda uning ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelib, o'qitish yoki tarbiya masalalariga oid nizolar esa aynan pedagogik fanlar negizida o'rganilishi zarur. Ma'lumki, har

qanday ta'limiy va tarbiyaviy xarakterga ega faoliyat asosini ham shaxslararo (pedagoglar, guruh (sinf) rahbarlari, talabalar, ta'lim muassasalarining rahbarlari, ota-onalar o'rtasidagi) munosabatlar tashkil etadi. Shu sababli pedagogik nizolarni to'g'ri baholash, salbiy xarakterga ega nizolarni bartaraf etishda psixologik bilimlarga tayanilib ish ko'riladi [2].


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsiyatning tuzilmasini aniqlashtirish orqali tadqiqot jarayonida shaxs tarbiyasining sinergetik nazariyasi asosida pedagogik nizolarning yuzaga kelishini o'rganishga muvaffaq bo'lindi [1].

Sinergizm (nochiziq, notekis harakatlanish) nafaqat tabiiy, balki tarbiya jarayonida ham namoyon bo'ladi.

Sinergetik yondashuv ochiq tizimlar, tartiblanmagan, beqaror, noteng, nochizikli munosabatlarga alohida e'tibor qaratadi. Agar notenglik atrof-borliqni o'rab turgan barcha jarayonlarning tabiiy holatini o'zida aks ettirsa, notenglik jarayonlarining immnent xususiyati sifatida o'z-o'zini tashkillashga intilish ham tabiiy ravishda yuzaga keladi. Aynan tuzilmaning noteng elementlarining birgalikdagi harakati yoki kogerent xulq-atvori o'z-o'zini tashkillash jarayoni sifatida tavsiflanadigan hodisa bilan bog'liqdir.

Sinergizm nazariyasiga ko'ra shaxsiyat tuzilmasining quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin: ongli va tizimli-funksional rolli ("integrativ — Men"), ong osti holatiga ko'ra ("ideal — Men", "aktual — Men"), individual-ongsiz, jamoaviy ongsizlik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Shaxsning sinergetik tuzilmali modeli

Mazkur model asosida oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik nizolar, ularning kelib chiqish sabablari va mohiyatini bayon etamiz.

Tadqiqot jarayonida pedagogik nizolar makro va mikroijtimoiy yondashuvlarga asosan tahlil etildi. Umumiy ma'noda makroiijtimoiy yondashuv jamiyat va uning alohida ijtimoiy institutlariga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mazkur yondashuv jamiyat rivoji bilan bog'liqlikda oliy ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining alohida turi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, makroiijtimoiy yondashuv oliy ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlarining o'ziga xosliklari, ishtirokchilarning ijtimoiy-psixologik tavsifini hisobga olishga imkon beradi va oliy ta'limdagi nizoli xulq-atvor strategiyasini aniqlashga yordam beradi [3].

PEDAGOGIKA

Mavjud manbalarni o'rganish pedagogik nizolar o'z mohiyatiga ko'ra: 1) ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoa; 2) pedagoglar va talabalar jamoasi; 3) ta'lim muassasasi jamoasi va ota-onalar; 4) ota-onalar va talaba sanalgan farzandlar; 5) talabalar jamoasi va alohida talaba o'rtasida yuzaga kelishini ko'rsatdi [4].

Ta'lim ishtirokchilari tomonidan qo'yilayotgan pedagogik talabning birdek anganmasligi, pedagoglar, guruh (sinf) rahbarlari, talabalar va ota-onalar tomonidan bir-birlarining fikrlari, maqsadlari yoki yondashuvlarini to'g'ri tushunmasliklari, o'z shaxsiy manfaatlarini ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari manfaatlaridan ustun qo'yishlari pedagogik nizoning keltirib chiqaruvchi asosiy omil sanaladi. Qolaversa, ta'lim muassasalari amaliyoti bilan tanishish natijasi ta'lim muassasalarining rahbarlari, pedagoglar, guruh (sinf) rahbarlari va ota-onalar tomonidan talaba shaxsi, unga xos yosh xususiyati, aqliy, jismoniy va fiziologik imkoniyatlarining inobatga olinmasligi, "hali voyaga yetmagan shaxs" sifatida qabul qilishlari; pedagogik talabni qo'yishda talabalarning yosh, psixologik, fiziologik va shaxsiy imkoniyatlarining inobatga olinmasligi; pedagogik talabning talabalar imkoniyatiga mos emasligi; pedagogik talabning qo'yilishida talabalarga birdek yondashilmaslik; pedagoglarning talabaga nisbatan "adolatsiz munosabatda bo'lishlari"; pedagogik talabning qo'yishda talabalarning xohish-istak, intilish va qiziqishlariga qarama-qarshi bo'lishi; pedagogik talabning qo'yilishida samimiylukning yetishmasligi, aksincha, buyruq ohangida bayon etilishi; pedagogik talabning qo'yilishida talaba shaxsiga ishonch bildirilmaslik va hokazolar pedagogik nizolar kelib chiqishini ta'minlovchi sabablar ekanligini ko'rsatdi.

O'z vaqtida pedagogik jarayonda yuzaga keladigan nizolar oldining olinmasligi talabalarda pedagogik jamoa va ota-onalarga nisbatan hurmatsizlikni keltirib chiqaradi, ta'lim olishga bo'lgan qiziqish yo'qoladi, shaxs sifatida o'zini anglash va o'z-o'zini yetarlicha baholash layoqati shakllanmaydi, hayotga bo'lgan intilish pasayadi, aksincha, jamiyat va uning a'zolariga qarshi nafrat hissi shakllanadi.

XULOSA

Pedagogik nizolar mohiyatini to'g'ri tushunish, ular vujudga kelgan vaqtda oqilona yo'l tutish, ularning imkoniyatidan ta'lim va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'rinni foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogik nizolarning mohiyatini to'g'ri anglash, nizoli vaziyatlarni oqilona baholash, ijobiy mazmundagi nizolarni ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga yo'naltirish, salbiy nizolarni o'z vaqtida baholash, ularning oldini olishga o'rgatish ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak pedagoglar sifatida talabalarning pedagogik nizolar mohiyati, ahamiyati va oqibatlar haqidagi maxsus bilimlarga ega emasliklari, ijobiy xarakterdagi pedagogik nizolarni maqsadli yo'naltirish, salbiy mazmundagilarini esa o'z vaqtida anglab, bartaraf etish ko'nikmalarini o'zlashtirmayotganliklari tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumaev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari. O'quv qo'llanma. – Samarqand. 2015. – bet 156. (Fundamentals of Conflictology: Main Notions and Principles)
2. Xujaniyozova Z., Dusmetova M., Nafasov D. Pedagogik konfliktologiya (O'quv uslubiy qo'llanma). – Urganch. 2015. – bet 211. (Pedagogical Conflictology)
3. Baybaeva M.X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – T.: 2022. Special Issue 4-2. – bet 403-411. (Modern Approaches on the Creation of Healthy and Creative Environment in Leaders' Administrative Activity)
4. Ismailova Z.K., Baybaeva M.X. Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishda konfliktologik kompetentligini rivojlantirish // Life Sciences and Agriculture. – T.: 2020. №.2-2. – bet 185-188. (Development of Conflict Competency of Leaders in Solving Disputable Circumstances)
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. – bet 107. (Critical Analysis, Strict Discipline and Personal Liability must be the Daily Principles of Every Leader's Activity)
6. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2019. – bet 120. (Development of Mechanisms of Professional Competency Improvement of Higher Education Institution Leaders and Pedagogical Personal)